

O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING YANGI HUQUQIY ASOSLARI

Ro'ziyeva Gulsanam Sultonmurodovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası dotsenti, s.f.b.f.d. (PhD), podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20811251>

Annotatsiya. Tadqiqotda bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning huquqiy-institutsional asoslari hamda milliy qonunchilikdagi terminologik muammolar olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy islohotlar doirasida vakolatli organlar faoliyati, idoralararo hamkorlik mexanizmlari va jabrlangan bolalarni individual muhofaza qilishda himoya orderining ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, zo'rvonlik shakllari, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, idoralararo hamkorlik, himoya orderi, profilaktika, preventiv mexanizm.

Аннотация. В исследовании на основе научных взглядов ученых анализируются правовые и институциональные основы защиты детей от всех форм насилия, а также терминологические проблемы в национальном законодательстве. Кроме того, в рамках правовых реформ освещаются деятельность компетентных органов, механизмы межведомственного взаимодействия и значение охранного ордера в индивидуальной защите пострадавших детей.

Ключевые слова: права ребенка, формы насилия, Национальное агентство социальной защиты, межведомственное взаимодействие, охранный ордер, профилактика, превентивный механизм.

Abstract. Based on the scholarly views of researchers, the study analyzes the legal and institutional frameworks for protecting children from all forms of violence, as well as terminological issues in national legislation. Furthermore, within the scope of legal reforms, it highlights the activities of competent authorities, mechanisms of inter-agency cooperation, and the significance of the protection order in the individual protection of victimized children.

Keywords: child rights, forms of violence, National Agency for Social Protection, inter-agency cooperation, protection order, prevention, preventive mechanism.

Bugungi kunda har qanday demokratik davlat siyosatining asosini inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish tashkil etadi. Ushbu tizimda jismoniy va aqliy jihatdan to'la kamol topmagan bolalar huquqlari alohida o'rin tutadi. Ularning huquqiy maqomi yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus



muhofaza va g'amxo'rlikka muhtoj. Shu sababli, mamlakatimizda yosh avlodning qonuniy manfaatlarini har tomonlama kafolatlash, ularni zo'ravonlikning barcha shakllaridan asrash ijtimoiy hayotning eng ustuvor yo'nalishidir.

Inson huquqlari tizimida bola huquqlari alohida o'rin tutadi, chunki bolalar kattalar ega bo'lgan imkoniyatlardan to'liq foydalana olmaydi va maxsus g'amxo'rlikka muhtoj bo'ladi. Huquqiy adabiyotlarda «bola» hamda «voyaga yetmagan shaxs» tushunchalarining o'zaro nisbati bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, huquqshunos olim M.O. Aliyevaning ilmiy qarashlariga ko'ra, «bola» atamasi bilan «voyaga yetmagan» tushunchasini birlashtirish hamda «voyaga yetmagan» atamasini bola hayotining o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan davriga nisbatan izoh sifatida qabul qilish lozim [2]. Mazkur yondashuvga tayanadigan bo'lsak, qonunchilik terminologiyasini soddalashtirish va subyektning huquqiy maqomini aniq belgilash uchun barcha normativ-huquqiy hujjatlarda yagona «bola» atamasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'z navbatida, I.A. Nazarovning nazariy qarashlarida amaldagi kodekslarda bola munosabatlarini ifodalashda «go'dak», «o'spirin», «kichik yoshdagi bola» kabi ko'plab iboralar ishlatilishi qayd etiladi [4]. Qonun hujjatlarida tarqoq holda qo'llanilgan terminlar o'rniga neytral va umumlashtiruvchi tushunchalarni kiritish bolaning kamsitilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Bola huquqlari tabiatini tadqiq etishda zo'ravonlik tushunchasi va uning shakllarini huquqiy klassifikatsiya qilish fundamental ahamiyatga ega. U.Sh. Sharaxmetovanning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda bolaning shaxsiy va mulkiy huquqlari turli qonun hujjatlarida aks etgan bo'lib, ularni professional bo'lmagan auditoriya uchun o'rganish murakkablik tug'diradi va alohida kodifikatsiyalangan akt qabul qilishni taqozo etadi [5]. Bu o'rinda shuni e'tirof etish joizki, bolaning huquqiy maqomini himoya qilish va unga qarshi qaratilgan g'ayrihuquqiy tajovuzlar tizimini aniq huquqiy mezonlar asosida guruhlash jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishning birlamchi shartidir. S.G. Karimovanning ilmiy xulosalarida esa, bola huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, ularni himoya qilish muayyan ijtimoiy-huquqiy vositalar tizimini talab qilishi ilgari suriladi [3]. Demak, zo'ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlari quruq deklarativ qoidalardan iborat bo'lmay, bevosita jinoiy, ma'muriy va fuqarolik-huquqiy taqiqlarning o'zaro muvozanatiga asoslanishi shart.

Davlatimiz qonunchiligida mazkur tushunchaning bazaviy asoslari mukammal darajaga keltirildi. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrda «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish



to'g'risida»gi O'RQ-996-son Qonuni bolaga nisbatan qasddan sodir etilib, uning hayoti, sog'lig'i, erkinligi va sha'niga tajovuz qiladigan har qanday harakat yoki harakatsizlikni zo'ravonlik deb e'tirof etadi [1]. Ushbu qonuniy asoslar doirasida zo'ravonlikning jismoniy, jinsiy, ruhiy, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya va ta'qib etish kabi oltita shakli qat'iy taqiqlanib, javobgarlikka tortish mezonlari belgilandi.

Bolalarga nisbatan sodir etiladigan har qanday tajovuz turi nafaqat shaxsning jismoniy daxlsizligini buzadi, balki uning kelgusi ruhiy va intellektual rivojlanishiga ham tiklab bo'lmaydigan zarar yetkazadi. Huquq tizimida zo'ravonlikning barcha modifikatsiyalarini, ayniqsa raqamli makonda amalga oshirilayotgan kiberta'qiblarni aniq tasniflash huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini kafolatlaydi. Bolaning zaiflik va ojizlik holatidan foydalangan holda uning ehtiyojlarini cheklash yoki mehnatga majburlash kabi yashirin zo'ravonlik shakllari ustidan nazoratni kuchaytirish, milliy qonunchilik normalarini xalqaro huquqiy standartlarga to'liq implementatsiya qilishni talab etadi. Zo'ravonlikning shakllarini huquqiy jihatdan bunday tizimlashtirish har bir huquqbuzarlik turi uchun adolatli jazo muqarrarligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bolalarni zo'ravonlikdan jismoniy va ijtimoiy muhofaza qilishda himoya tizimini amalga oshiruvchi institutlarning huquqiy maqomini belgilash institutsional tizimning barqarorligini ta'minlaydi. Bolalar har doim davlat va jamiyat tomonidan maxsus g'amxo'rlikka muhtoj bo'lib, ularni himoya qilish mexanizmi o'zaro ta'sir qiluvchi subyektlar hamda ijtimoiy-huquqiy vositalar yaxlitligini taqozo etadi [3]. Bolalarni zo'ravonlikning barcha ko'rinishlaridan asrash faqatgina bitta idoraning vazifasi bo'lmay, vertikal va gorizontal tuzilmaga ega bo'lgan ko'p bosqichli davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari tizimini shakllantirishni talab qiladi. Bola huquqlarini ta'minlash jarayonida prokuratura organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar oldida qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash bo'yicha muhim ixtisoslashgan vazifalar turadi [2]. Subyektlar tizimida faqat jazo choralari qo'llovchi idoralar emas, balki ijtimoiy rehabilitatsiya va preventiv choralarni amalga oshiruvchi ixtisoslashgan ijtimoiy xizmat tuzilmalarining roli birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Ushbu sohadagi subyektlar tizimining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi [1]. Agentlik Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiyaning ishchi



organi sifatida tizimdagi barcha davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, hayotiy vaziyatlarni baholaydi va bolalarni himoya qilish rejalarini ishlab chiqadi. Shuningdek, tizimga Vazirlar Mahkamasi, Bolalar ombudsmani, prokuratura, ichki ishlar, Milliy gvardiya, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ishlari agentligi hamda ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari kabi subyektlar qat'iy funksional majburiyatlar bilan kiritildi.

Qonunchilikda idoralararo hamkorlikning aniq yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra barcha subyektlar axborotning maxfiylikni saqlagan holda o'zaro xabardor qilish, zo'ravonlik faktlarini kompleks baholash va hamkorlikda qo'shma qarorlar qabul qilishga majburdirlar. Agar biror-bir jismoniy yoki yuridik shaxs bolaga nisbatan zo'ravonlik holatini aniqlasa, bu haqda zudlik bilan vakolatli organga yoki ichki ishlar idoralariga darhol xabar berishi shartligi qonuniy majburiyat qilib qo'yildi.

Davlat organlarining o'zaro integratsiyalashgan faoliyati bolalarga nisbatan har qanday g'ayrihuquqiy harakatga chek qo'yishning yagona kafolatidir. Vakolatli organning tuman va mahalla darajasidagi tuzilmalari ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari hamda ta'lim muassasalarining psixologlari bilan uzviy bog'lanishi yashirin zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash imkonini beradi. Bunda idoralar o'rtasida byurokratik to'siqlarsiz, tezkor axborot almashish tizimining raqamlashtirilishi, xavf ostidagi bolalarning hayotini saqlab qolishda vaqt omilidan unumli foydalanishni ta'minlaydi. Idoralararo hamkorlik mexanizmlarining qat'iy qonuniy mezonlar asosida tartibga solinishi subyektlar o'rtasida mas'uliyatni bir-biriga yuklash kabi salbiy amaliyotga barham beradi.

Zo'ravonlikdan jabrlangan hamda xavf ostidagi bolalarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishda individual yondashuvga asoslangan ta'sir choralari tizimning yakuniy samaradorligini belgilaydi. «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, jabrlangan bolalarga davlat himoyasini taqdim etuvchi hamda tajovuzkor shaxsning huquqlarini cheklovchi himoya orderi instituti joriy etildi [1]. Bu hujjat ichki ishlar organlari tomonidan xavf darajasini baholash asosida tezkorlik bilan beriladi va monitoring qilinadi. Bevosita tahdid mavjud bo'lgan favqulodda holatlarda bolani zudlik bilan olib qo'yish va xavfsiz joylashtirish choralari belgilangan. Shuningdek, reabilitatsiya tizimi doirasida bepul tunu kun ishlaydigan ishonch telefoni, psixologik-pedagogik yordam va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha majburiy tuzatish dasturlari qonuniy mustahkamlandi.

Demak, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishning yangi huquqiy asoslari deklarativ xarakterdan butunlay voz kechib, har bir jabrlanuvchi bolaning



individual xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan amaliy preventiv mexanizmga aylandi. Kompleks baholash asosida ishlab chiqiladigan maxsus himoya rejalari va sud jarayonlarida bolaning ruhiyatini asraydigan protsessual kafolatlar tizimi milliy odil sudlovni xalqaro standartlar darajasiga ko'tardi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, subyektlarning qat'iy funksional majburiyatlari, hamkorlik mezonlari hamda individual himoya choralari muvozanati mamlakatimizda yosh avlod manfaatlarini har tomonlama oliy qadriyat sifatida kafolatlanishini to'liq ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi «Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi O'RQ-996-son Qonuni.
- 2.Aliyeva M. O. O'zbekiston Respublikasida yuvenal yustitsiya tushunchasining nazariy-huquqiy asosi // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, Issue 10, Part 4. – P. 152–156.
- 3.Karimova S. G. “Bola huquqlarini himoya qilish” tushunchasi va mohiyati tahlili // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2024. – Vol. 4, Issue 7. – P. 30–37.
- 4.Nazarov I. A. Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikning asosiy prinsiplari, huquqlari va yo'nalishlari // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Vol. 4, Issue 11, Part 2. – P. 96–102.
- 5.Sharaxmetova U. Sh. Bola huquqlari instituti tushunchasi va zamonaviy huquq tizimidagi o'rne // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Vol. 4, Issue 1. – P. 138–145.

